

VII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni (2021- yil 1- oktabr holatiga, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- oktabr holatiga 38328 tani tashkil etib, ulardan 36928 tasi yoki 96,3 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 9103 taga yoki 31,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida davomida viloyatimizda 8370 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4541 taga ko'pdir.


Ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi
(2021- yil 1- oktabr holatiga)

	<i>Ro'yxatga olinganlar</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotganlar</i>	
	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>
Jami	38328	100,0	36928	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7251	18,9	6994	18,9
Sanoat	5037	13,1	4817	13,0
Qurilish	3611	9,4	3481	9,4
Savdo	10565	27,6	10218	27,7
Tashish va saqlash	1024	2,7	1001	2,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1972	5,1	1801	4,9
Axborot va aloqa	449	1,2	437	1,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	778	2,0	766	2,1
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	7641	20,0	7413	20,1


Korxonalar va tashkilotlar soni

	2021- yil 1- oktabr holatiga ro'yxatga olingan	2021- yil yanvar-sentabr oylarida	
		tashkil topdi	tugatildi
Viloyat bo'yicha:	38328	8370	1153
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	7445	1324	226
Shahrisabz	2129	402	139
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	1936	484	34
Dehqonobod	1825	381	30
Qamashi	2688	730	106
Qarshi	2772	514	91
Koson	2931	591	64
Kitob	2745	697	63
Mirishkor	1369	311	30
Muborak	1289	267	54
Nishon	1653	376	17
Kasbi	1684	444	83
Chiroqchi	3242	714	58
Shahrisabz	1959	473	104
Yakkabog'	2661	662	54


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga)






Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga, birlikda)



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- sentabr oylarida)**



Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yil 1- oktabr holatiga, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yil 1- oktabr holatiga, birlikda)



2021- yil 1- oktabr holatiga 32 093 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 10 345 ta, oilaviy korxonalar – 4 225 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 16 781 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 45 ta, unitar korxonalar – 137 ta va boshqalar – 560 tani tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 8370 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 marta ko'pdir.

Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 4112 ta, oilaviy korxonalar 2357 ta, xususiy korxonalar 1574 ta, muassasalar 148 ta va boshqalar 179 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1- oktabr holatiga, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yil 1- oktabr holatiga 4516 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2699 taga yoki 2,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4225 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2489 taga yoki 2,4 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan oilaviy korxonalar soni 291 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 210 taga oshganligini ko'rish mumkin.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni (2021- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Chiroqchi (316 ta), Shahrisabz (308 ta), G'uzor (307 ta), Qarshi (276 ta), Qarshi shahri (262 ta), Kitob (238 ta), Koson (133 ta), Dehqonobod (116 ta), Mirishkor (114 ta), Muborak (69 ta), Yakkabog' (60 ta), Shahrisabz shahar (60 ta) va Qamashi (49 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Nishon (33 ta), Kasbi (16 ta) tumanlari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2021- yil 1- oktabr holatiga, birlikda)


Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yil 1- oktabr holatiga 17260 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 4685 taga yoki 37,3 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 16781 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 4580 taga yoki 37,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4112 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1857 taga yoki 82,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida soni (1- oktabr holatiga, birlikda)




2021- yil 1- oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamiyati ulushi Qarshi shahrida 23,6 %, Koson 10,5 %, Qamashi 8,8 %, Chiroqchi 7,7 %, Yakkabog' 7,2 %, Qarshi 6,2 %, Kasbi 5,1 %, Kitob 4,8 %, Mirishkor 4,6 %, Nishon 4,4 %, Muborak 4,2 %, G'uzor 4,1 %, Shahrisabz shahrida 3,9 %, Shahrisabz 3,2 %, Dehqonobod tumanlarida 1,7 % ni tashkil etadi.

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2021- yil 1- oktabr holatiga, birlikda)**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>Qo'shma korxonalar</i>	<i>Xorijiy korxonalar</i>
Qashqadaryo viloyati	237	163	74
G'uzor	13	10	3
Dehqonobod	15	11	4
Qamashi	14	10	4
Qarshi	17	11	6
Koson	23	14	9
Kitob	20	12	8
Mirishkor	5	3	2
Muborak	9	6	3
Nishon	16	13	3
Kasbi	8	5	3
Chiroqchi	12	10	2
Shahrisabz	6	3	3
Yakkabog'	15	8	7
Qarshi sh.	57	44	13
Shahrisabz sh.	7	3	4

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi, foizda




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma‘lumotlarni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘rsak eng ko‘p sanoatda 110 ta (46,4 %), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 49 ta (20,7 %) hamda savdoda 40 ta (16,9 %), qurilishda 11 ta (4,6 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda mos ravishda 8 ta (3,4%) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlash 4 ta (1,7 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 6 ta (2,5%), axborot va aloqa 1 ta (0,4 %) ni tashkil qilgan. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi faoliyat turiga to‘g‘ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqada, tashish va saqlash faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.

Kichik tadbikorlik subyektlari soni
(2021- yil 1- oktabr holatiga, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(1- oktabr holatiga, birlikda)



**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(1- oktabr holatiga, birlikda)**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>mikrofirmalar</i>	<i>kichik korxonalar</i>
Qashqadaryo viloyati	31903	30667	1236
G'uzor	1616	1553	63
Dehqonobod	1510	1490	20
Qamashi	2317	2263	54
Qarshi	2335	2239	96
Koson	2531	2477	54
Kitob	2330	2221	109
Mirishkor	1113	1091	22
Muborak	1050	1017	33
Nishon	1341	1289	52
Kasbi	1386	1338	48
Chiroqchi	2682	2608	74
Shahrisabz	1515	1464	51
Yakkabog'	2203	2145	58
Qarshi sh.	6148	5741	407
Shahrisabz sh.	1826	1731	95

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi - ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2021- yil 1- oktabr holatiga (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.